




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 25 236 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 21 220 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 38 352 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 foizni tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

( 1-oktabr holatiga)



# 1- BO'LIM. SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKILOTLARNING SONI

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 158 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Jarqo'rg'on (229 taga), Termiz tumanlarida (184 taga) va Termiz shahrida (181 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sanoat – 560 taga, savdo – 331 taga va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 269 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 25 236 tani tashkil etdi, ulardan 21 308 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 32,5 foiz, sanoat - 13,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9,9 foiz, qurilish - 8,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Termiz shahrida - 16,6 foiz, tumanlardan Denov - 12,0 foiz, Jarqo'rg'on - 7,6 foiz, Sherobod - 7,0 foiz va Sho'rchida - 6,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 062 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 057 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.

## Yillar kesimida soni

(birlikda)

4 062

2024

2023

2 655

3 293

2022

2021

4 218

6 398

2020

## Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Termiz sh.

731

457

Denov t.

Jarqo‘rg‘on t.

430

328

Sho‘rchi t.

Termiz t.

297

241

Qiziriq t.

Sherobod t.

232

228

Oltinsoy t.

Qumqo‘rg‘on t.

224

216

Angor t.

Sariosiyo t.

184

149

Muzrabot t.

Uzun t.

127

125


Boysun t.

Bandixon t.

93

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 21 308 tani tashkil etdi, ulardan 21 220 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 38,1 foiz, sanoat - 15,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 11,6 foiz, qurilish - 9,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,8 foiz, tashish va saqlash - 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 1,9 foiz, axborot va aloqa - 1,7 foiz, boshqa turlari - 9,8 foiz.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida sanoatda yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 412 tadan 958 taga (o‘sish 546 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 285 tadan 555 taga (o‘sish 270 taga) ko‘paydi.

### Yillar kesimida soni

(birlikda)




### Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Termiz sh.	731
Denov t.	457
Jarqo‘rg‘on t.	427
Sho‘rchi t.	327
Termiz t.	297
Qiziriq t.	241
Sherobod t.	231
Oltinsoy t.	228
Qumqo‘rg‘on t.	224
Angor t.	216
Sariosiyo t.	184
Muzrabot t.	149
Uzun t.	127
Boysun t.	125
Bandixon t.	93


### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (17,0 foiz), Denov (12,1 foiz), Jarqo'rg'on (7,7 foiz), Sherobod (7,2 foiz) va Sho'rchi (7,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.




## 2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-oktabr holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sherobod (13,7 foiz), Denov (10,8 foiz) va Jarqo'rg'on (9,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 13,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Termiz sh.	461
Denov t.	422
Sho'rchi t	288
Qumqo'rg'on t.	253
Sariosiyo t.	239
Jarqo'rg'on t.	233
Sherobod t.	216
Uzun t.	204
Angor t.	195
Termiz t.	188
Boysun t.	171
Muzrabot t.	163
Oltinsoy t.	159
Qiziriq t.	145
Bandixon t.	73

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**




**(2024-yil 1-oktabr holatiga)**



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 22,2 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Bino va  
inshootlar qurish

1 173



445

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Fuqarolik  
obyektlarini qurish

462



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 8 193 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 11,1 foiz ulushni tashkil etdi

### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	1 269
Denov t.	1 122
Sho'rchi t.	640
Jarqo'rg'on t.	637
Qumqo'rg'on t.	565
Sherobod t.	540
Angor t.	510
Termiz t.	506
Oltinsoy t.	413
Qiziriq t.	409
Sariosiyo t.	383
Uzun t.	382
Muzrabot t.	318
Bandixon t.	258
Boysun t.	251

### Yillar kesimida soni (birlikda)



5 112

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2 183

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

908

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**


Termiz sh.	148
Denov t.	103
Sherobod t.	53
Jarqo'rg'on t.	50
Sho'rchi t.	46
Qumqo'rg'on t.	38
Termiz t.	37
Qiziriq t.	35
Oltinsoy t.	29
Angor t.	29
Uzun t.	25
Muzrabot t.	25
Sariosiyo t.	21
Boysun t.	17
Bandixon t.	5

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 69,9 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 27,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,3 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



*(2024-yil 1-oktabr holatiga)*

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 1 673 taga yetib, ularning 1 665 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,8 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,2 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Termiz sh.	382
Denov t.	199
Sariosiyo t.	116
Sherobod t.	116
Termiz t.	114
Jarqo'rg'on t.	113
Sho'rchi t.	110
Boysun t.	98
Muzrabot t.	82
Qumqo'rg'on t.	82
Angor t.	77
Uzun t.	71
Oltinsoy t.	46
Qiziriq t.	39
Bandixon t.	28

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Oziq-ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha  
xizmatlar

131

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'llimida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 67,0 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,5 foizni;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'llimida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 30,5 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Termiz sh.	122
Denov t.	49
Sho'rchi t.	24
Jarqo'rg'on t.	24
Qiziriq t.	21
Oltinsoy t.	18
Bandixon t.	15
Boysun t.	13
Uzun t.	12
Angor t.	12
Muzrabot t.	11
Termiz t.	10
Qumqo'rg'on t.	9
Sherobod t.	9
Sariosiyo t.	9

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,  
maslahat berish va boshqa  
yordamchi xizmatlar

150

90

Aloqa



Noshirlik faoliyati

60

49

Axborot xizmati  
ko'rsatish  
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion  
dasturlar, fonogrammalar va  
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

6

3

Dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat va teleko'rsatuv  
va radioeshittirish



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 410 ta yoki 85,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,0 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,9 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etdi.


### Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Termiz sh.	135
Denov t.	72
Sho'rchi t.	33
Sherobod t.	33
Qumqo'rg'on t.	30
Jarqo'rg'on t.	29
Sariosiyo t.	21
Angor t.	21
Uzun t.	20
Qiziriq t.	18
Termiz t.	16
Oltinsoy t.	16
Boysun t.	13
Muzrabot t.	13
Bandixon t.	8

### Yillar kesimida soni

(birlikda)




Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat



Yashash uchun joy  
bilan ta'minlangan  
holda parvarishlash

14



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot  
(2024-yil 1-oktabr holatiga)**

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

**12 092**

**mas'uliyati cheklangan jamiyat**

**56,7**

**4 900**

**xususiy korxonalar**

**23,0**

**4 055**

**oilaviy korxonalar**

**19,0**

**16**

**aksiyadorlik jamiyatি**

**0,1**

**245**


**boshqalar**

**1,2**

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Termiz sh.	562	Angor t.	145
Denov t.	258	Sherobod t.	133
Jarqo'rg'on t.	250	Boysun t.	90
Sho'rchi t.	249	Muzrabot t.	77
Termiz t.	245	Sariosiyo t.	60
Qumqo'rg'on t.	181	Bandixon t.	57
Qiziriq t.	165	Uzun t.	39
Oltinsoy t.	150		

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Amaldagi 21 308 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-oktabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 12 092 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,6 foiz, sanoat – 13,4 foiz, qurilish – 12,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,5 foiz.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)


Termiz sh.	2 664	Qiziriq t.	561
Denov t.	1 267	Boysun t.	556
Termiz t.	946	Sariosiyo t.	500
Jarqo'rg'on t.	905	Muzrabot t.	469
Sherobod t.	856	Oltinsoy t.	452
Sho'rchi t.	831	Uzun t.	366
Qumqo'rg'on t.	782	Bandixon t.	289
Angor t.	648		

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Uzun t.	58	Bandixon t.	14
Sariosiyo t.	50	Qiziriq t.	16
Denov t.	41	Oltinsoy t.	9
Sherobod t.	38	Qumqo‘rg‘on t.	9
Termiz sh.	34	Termiz t.	6
Sho‘rchi t.	33	Angor t.	6
Muzrabot t.	30	Boysun t.	3
Jarqo‘rg‘on t.	23		

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan. Denov tumanida – 723 ta, Termiz sh – 640 ta va Uzun tumanida – 467 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 179 ta, sanoat – 705 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 468 ta va qurilish sohasida – 445 ta.

## Yillar kesimida soni

(birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	723
Termiz sh.	640
Uzun t.	467
Sariosiyo t.	395
Jarqo'rg'on t.	377
Sho'rchi t.	349
Qumqo'rg'on t.	329
Sherobod t.	291

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



## (2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	158	Termiz t.	46
Jarqo‘rg‘on t.	157	Sho‘rchi t.	45
Termiz sh.	135	Muzrabot t.	42
Sariosiyo t.	74	Qumqo‘rg‘on t.	32
Oltinsoy t.	69	Boysun t.	31
Angor t.	65	Uzun t.	29
Sherobod t.	61	Bandixon t.	22
Qiziriq t.	56		

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 4 055 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,8 foiz, sanoat – 25,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Denov – 14,1 foiz, Sherobod – 8,8 foiz va Jarqo'rg'on tumanlarida – 8,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	571
Sherobod t.	358
Jarqo'rg'on t.	350
Termiz sh.	293
Sho'rchi t.	285
Oltinsoy t.	266
Angor t.	263
Qumqo'rg'on t.	253

Sariosiyo t.	244
Termiz t.	219
Uzun t.	218
Qiziriq t.	214
Boysun t.	208
Muzrabot t.	180
Bandixon t.	133

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)




## Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiyl sonining 100,0 foizini tashkil etadi

### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Muzrabot t.	3
Oltinsoy t.	3
Jarqo'rg'on t.	2
Sariosiyo t.	2
Boysun t.	1
Qumqo'rg'on t.	1
Uzun t.	1
Sho'rchi t.	1

### Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-oktabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Oltinsoy (13,7 foiz), Denov (13,4 foiz) va Sherobod (9,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Oltinsoy t.	878
Denov t.	858
Sherobod t.	608
Sariosiyo t.	600
Qumqo'rg'on t.	560
Sho'rchi t.	438
Uzun t.	424
Boysun t.	400
Muzrabot t.	385
Jarqo'rg'on t.	334
Bandixon t.	311
Termiz t.	290
Angor t.	224
Qiziriq t.	110
Termiz sh.	1

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



## 4- BO'LIM. CHET EL INVESTITSIYASI ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

### Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 4,9 martaga oshgan.

#### Yillar kesimida soni (birlikda)

161 ... 2024

2023 ... 33

68 ... 2022

2021 ... 132

51 ... 2020

#### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



3

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi



11

Sanoat



7

Qurilish



117

Savdo



5

Tashish  
va saqlash



4

Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar



12

Axborot  
va aloqa



1

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish



1

Boshqa turlar

#### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz t.	85	Bandixon t.	2
Termiz sh.	50	Qiziriq t.	2
Denov t.	6	Jarqo'rg'on t.	1
Boysun t.	5	Sho'rchi t.	1
Sariosiyo t.	3	Qumqo'rg'on t.	1
Angor t.	2	Oltinsoy t.	1
Uzun t.	2		

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 436 ta korxonalardan 68 tasi qo'shma korxonalar va 368 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

### Hududlar kesimida soni

(birlikda)



### Yillar kesimida soni

(birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	205
Termiz t.	103
Uzun t.	19
Sariosiyo t.	19
Denov t.	16
Angor t.	12
Muzrabot t.	12
Sho'rchi t.	11

Boysun t.	11
Bandixon t.	7
Qumqo'rg'on t.	6
Jarqo'rg'on t.	5
Sherobod t.	4
Qiziriq t.	4
Oltinsoy t.	2

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 285 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Afg'oniston Islom Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 65,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 8,9 foiz), Tojikiston (ulushi 5,0 foiz), Turkiya (ulushi 3,7 foiz) hamda Xitoy (ulushi 3,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2024-yil 1-oktabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Termiz shahriga 47,0 foiz, tumanlar orasida esa Termiz – 23,6 foiz, Uzun va Sariosiyoga – 4,4 foizdan to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)



2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston  
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida,  
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,  
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

